

Raxmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizi

Namangan Davlat Texnika Universiteti

katta o'qituvchisi (Phd)

rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com

+998971771991

UDK 811.111'373.612:69

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QURILISH SOHASIGA OID LEKSIK
BIRLIKLARDAGI ANTROPONIMLARNING TARJIMAVIY
XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya:** Mazkur ishda qurilish sohasi terminologiyasida uchraydigan antroponimlarning tarjimaviy xususiyatlari lingvistik va pragmatik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Antroponimlarning qurilish atamalaridagi roli, ularning semantik va ma'no qatlamlari chuqur o'rganiladi hamda tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar yoritiladi. Shuningdek, ingliz, rus, va o'zbek tillaridagi qurilish matnlaridan olingan misollar asosida antroponimlar ishtirokidagi terminlarning tarjima usullari transliteratsiya, kalka, izohli tarjima kabilar ko'rib chiqiladi. Ish natijasida antroponimik birliklarning to'g'ri tarjima qilinishini ta'minlashda madaniy va tarixiy kontekstlarni hisobga olish muhimligi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** qurilish, terminologiya, antroponim, termin, leksik birlik, polisemiya, sinonim.*

Рахмонбердиева Саида Абдумухамадовна

старший преподаватель (PhD),

Наманганского государственного технического университета

**ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ В
ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СТРОИТЕЛЬНОЙ
СФЕРЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация: В данной работе анализируются переводческие особенности антропонимов, встречающихся в строительной терминологии, с лингвистической и культурно-прагматической точек зрения. Исследуется роль антропонимов в строительных терминах, их семантическая нагрузка и смысловые слои, а также освещаются проблемы, возникающие в процессе перевода. Кроме того, на основе примеров из строительных текстов на английском, русском и узбекском языках рассматриваются стратегии перевода терминов с антропонимами транслитерация, калькирование и описательный перевод. В результате обосновывается важность учета культурного и исторического контекста для обеспечения правильного перевода антропонимических единиц.

Ключевые слова: строительство, терминология, антропоним, термин, лексическая единица, полисемия, синоним.

Saida Abdulmukhamatovna Rakhmonberdieva

Senior teacher (PhD),

Namangan State Technical University

TRANSLATIONAL FEATURES OF ANTHROPONYMS IN CONSTRUCTION RELATED LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: This research analyzes the translational features of anthroponyms found in construction terminology from linguistic and cultural-pragmatic perspectives. The study explores the role of anthroponyms in construction terms, their semantic load, and layers of meaning, as well as the challenges encountered during the translation process. Furthermore, based on examples taken from construction texts in English, Russian, and Uzbek, translation strategies involving anthroponyms such as transliteration, calque, and descriptive translation are examined. The findings emphasize the importance of considering

cultural and historical contexts to ensure the accurate translation of anthroponymic units.

Keywords: *construction, terminology, anthroponym, term, lexical unit, polysemy, synonym.*

Kirish

Bugungi kunda, o'zbek va xorij tilshunoslarining ism va joy nomlarga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib borayotgani, hamda antroponim va toponimlarning tarixi va bugungi kundagi holatini o'rganishga bo'lgan qiziqish shu mavzudagi tadqiqotlarni yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda. O'zbek tiliga Davlat maqomi berilgandan so'ng yuzaga kelgan ikki nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Aynan biz ham ushbu maqolada bino-inshootlari qurilishiga oid terminlarning antroponim va toponim sifatida berilishini tahlilga tortdik.

Adabiyotlar tahlili

Antroponim onomastika o'rganadigan o'n to'qqiz turdagi atoqli otlardan biridir. Yillar davomida onomastikaga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida ham so'z borgan. Turli tadqiqotlarda antroponimlarning kelib chiqishi sabablari va ularning ma'nolarga oid fikrlar bildirilgan bo'lsada, alohida fan sifatida antroponimika onomastikadan 60-70-yillarda ajralib chiqqan. XX asrning 60-yillarigacha esa bir qator muammolar har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Ma'lumki, antroponim (yunoncha: antropos - antropos + onoma-atoqli ot) kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biridir.

Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo'lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. Har bir tilda lug'at boyligining salmoqli qismini antroponimlar tashkil qiladi. Shuning natijasida kundalik

nutqimizda eng ko‘p kishi ismlariga murojaat qilamiz. Ular inson hayotining ajralmas bir bo‘lagini tashkil qilib, psixologiyamizga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Jahon psixolog olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha kishi umri davomida eng ko‘p o‘zining ismini eshitar ekan. Shuning uchun qadimdan bolaga ism qo‘yish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda.

Ismlarning paydo bo‘lishi yer yuzida birinchi insonning yaralishiga borib taqaladi. Birinchi inson Odam alayhissalomdir. “Odam” so‘zi biror narsaning tashqi tomonini bildiradi, xususan, “adimatul-ard” iborasi “yer yuzi” ma‘nosida qo‘llangan. Rivoyatlarda bu ism Odam alayhissalomga berilganligi, u yer yuzining turli qismlaridan olingan tuproqdan yaratilganligi xabar qilingan (Abu Dovud, Sunan, 16; Termiziy, Tafsir, 2/955). Bunday ism Odam alayhissalomga Alloh taolo tomonidan berilgan (Baqara, 2/31-37).

O‘zbek tilshunosligida antroponimlar xususida juda katta o‘rganishlar olib borilgan. E.Begmatov, N.Husanov, G.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov va boshqalar o‘zbek antroponimlari haqidagi materiallarni to‘plashga, leksik va semantik xususiyatlari, lingvistik tuzilishi, ismlarning etnografik va motivatsion ma‘nolarini o‘rganish, o‘zbek mintaqaviy antroponimiyasining o‘ziga xos tomonlarini kuzatish, ismlarning orfografik va izohli lug‘atlarini tuzish sohalariga munosib hissa qo‘shishgan.[1] Biroq, o‘zbek antroponimiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ismlarning nominativ xususiyatlari, nomlashning motivatsion asoslari, lingvistik va nolingvistik tamoyillarning roli, antroponimiyani sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy o‘rganish kabi muammolar hanuzgacha tegishli tadqiqotchilarni kutmoqda. Ismlar tizimini sotsiologik jihatdan o‘rganmasdan turib, antroponimlarning kelib chiqishi, antroponimlar tizimining rivojlanishi, boyitilishi va o‘zgaruvchan xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bo‘lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola qurilish terminologiyasiga asoslangan antroponimlarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tizimli, qiyosiy-tipologik va semantik-motivatsion yondashuvlar orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini onomastika va antroponimika sohasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. A.V.Superanskaya antroponimlardagi sinonimlikni polionimiya (ko'pnomlilik) atamasi bilan yuritishni maqbul ko'radi.[2]

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz tillarida qurilish sohasi bilan semantik jihatdan bog'liq bo'lgan antroponimlar tanlab olindi. O'zbek tilida Toshboy, Toshxon, Temur, Po'lat, Metinboy, Boltaboy, Teshaboy kabi ismlar tahlil qilindi. Mazkur birliklar qurilish materiallari (tosh, temir), asbob-uskunalar (bolta, tesha) hamda mustahkamlik va chidamlilikni ifodalovchi semantik komponentlar asosida shakllangan. Ingliz tilida esa Stone, Stonewall, Steel, Hoe kabi birliklar antroponimik nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Shuningdek, mazkur leksemalarning real nutqiy qo'llanishini ko'rsatish maqsadida Stonewall Jackson, Stone Phillips hamda Stone Gossard kabi shaxslar nomlari misol tariqasida tahlilga tortildi.

Tadqiqot davomida bir necha metodlardan foydalanildi. Avvalo, tizimli tahlil metodi yordamida antroponimlarning struktur-semantik tuzilishi aniqlanib, ular kelib chiqish manbasiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Qiyosiy-tipologik metod orqali o'zbek va ingliz tillaridagi qurilish terminlari asosidagi ismlarning o'xshash va farqli jihatlari belgilandi. Semantik-motivatsion tahlil esa ismlarning ichki ma'nosi, metaforik asoslari hamda milliy tafakkur bilan bog'liqligini ochib berishga xizmat qildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot antropotsentrik paradigma asosida olib borildi. Ya'ni, antroponimlar faqat nominativ birlik sifatida emas, balki insonning ijtimoiy tajribasi, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq til hodisasi sifatida talqin qilindi. Shu asosda qurilish terminologiyasi bilan bog'liq antroponimlar mustahkamlik, chidamlilik, jasorat va barqarorlik kabi konseptual semalarni ifodalovchi lingvomadaniy birliklar sifatida ilmiy tahlil etildi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot davomida qurilish sohasi bilan bog'liq bo'lgan antroponimlarning ingliz, o'zbek va qisman rus tillaridagi ishlatilish holatlari qiyosiy jihatdan tahlil

qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, antroponimlarning qurilish terminologiyasidagi roli nafaqat lingvistik, balki madaniy-motivatsion asosga ega.

Birinchidan, o'zbek tilidagi Toshboy, Temur, Po'lat, Boltaboy, Teshaboy kabi ismlar xalq tafakkurida qattqlik, mustahkamlik, chidamlilik kabi ma'nolarni anglatadi. Bu esa insonning hayotiy barqarorlikka intilishi bilan bog'liq qadimiy dunyoqarashni ifodalaydi. Shu jihatdan, o'zbekcha qurilish terminlariga o'xshash semantik asosdagi inglizcha ismlar - Stone, Steel, Brickman, Carpenter, Mason kabi antroponimlar bilan semantik parallel hosil qiladi.

Ikkinchidan, ingliz tilida uchraydigan Stonewall, Steel, Carpenter kabi ismlar dastlab kasb nomlari sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik antroponimlashuv jarayoniga uchrab, familiya yoki shaxs ismi sifatida qo'llanila boshlagan. O'zbek tilidagi "Boltaboy", "Temur", "Po'lat" kabi ismlar ham xuddi shu jarayonni milliy mentalitet asosida ifodalaydi. Bu holat antroponimlarning semantik motivatsiyasi universalligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tarjima jarayonida qurilishga oid antroponimlarni ifodalashda uch asosiy strategiya kuzatildi:[8]

1. Transliteratsiya – ismning yozuvdagi shaklini o'zgartirmasdan yetkazish. Masalan: *Temur* → *Timur*, *Po'lat* → *Polat*, *Stone* → *Stoun*. Bu usul asosan tarixiy shaxslar nomini yoki milliy koloritni saqlash uchun ishlatiladi.
2. Kalka (so'zma-so'z tarjima) - semantik asosni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish. Masalan: *Stonewall Jackson* - "Toshdevor Jekson", *Po'latbek* – "Steelbek" tarzida tahliliy yondashuvda. Biroq, bu usul har doim to'liq ekvivalent bo'lavermaydi, chunki ismning madaniy ma'nosi so'zma-so'z tarjimada yo'qoladi.
3. Izohli tarjima (descriptive translation) - ismning ma'nosi va madaniy konnotatsiyasini izohlash orqali tarjima qilish. Masalan: *Temur* - "Iron" (symbolizing strength and firmness); *Stonewall Jackson* - "Jackson with the nickname 'stone wall', symbol of unbreakable defense." Bu usul madaniy adekvatlikni ta'minlashda eng samarali hisoblanadi.

To‘rtinchidan, qurilish sohasi antroponimlari orasida polisemiya hodisasi kuzatilmagan bo‘lsa-da, sinonimiya holatlari ancha faol. Masalan, ingliz tilidagi *Mason, Builder, Architect* kabi ismlar ba‘zan bir kasbni bildirsa-da, turli tarixiy bosqichlarda shaxs ismi yoki familiya sifatida qo‘llanilgan. O‘zbek tilida esa *Temur, Po‘lat, Metin, Qattiqboy* kabi ismlar barchasi “kuchli, mustahkam” ma’nosini beradi, bu esa madaniy sinonimiyani yuzaga keltiradi.

Beshinchidan, tarixiy kontekstda antroponimlarning qurilish bilan bog‘lanishi xalqning dunyoqarashini ham aks ettiradi. Masalan, Bobur davrida “Temuriylar” nomi “temirdek mustahkam” davlat tuzumi ramzi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, ingliz tarixida “Stonewall Jackson” nomi “sodiqlik va mardlik” timsoliga aylangan. Bu ikki madaniyatda ham qurilish materiali “temir”, “tosh” inson fazilatlarini ifodalovchi metaforaga aylangan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, antroponimlarning qurilish terminologiyasi bilan bog‘liq qo‘llanishi faqat nom emas, balki madaniy semantika tizimi sifatida ham talqin etilishi kerak.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, antroponimlar qurilish sohasi terminologiyasining muhim lingvomadaniy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular orqali xalqning tarixiy dunyoqarashi, mehnatsevarlik, chidamlilik va mustahkamlikka bo‘lgan ehtiyoji ifodalanadi. Tarjima jarayonida bunday antroponimlarni to‘g‘ri va adekvat yetkazish uchun tarjimon: madaniy kontekstni inobatga olishi; realiya va semantik yukni izohlashi; tarixiy-madaniy paralellarni anglay olishi zarur.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi qurilish antroponimlari o‘rtasida semantik yaqinlik va motivatsion o‘xshashlik mavjudligi aniqlangan. Bu esa xalqlar tafakkurida mehnat, mustahkamlik va jasorat kabi qadriyatlarning umumiy ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент, 2013. – Б. 11
- Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990.

2. Суперанская А.В Структура имени собственного М.: 1966. – С. 44
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988.
4. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. — Amsterdam: John Benjamins, 1995
5. Швейцер А.Д. Современное переводоведение. — М.: R.Valent, 2002
6. Белецкий А. А. Лексикология и теория языкознания (ономастика). — Киев, 1972. – С. 167
7. Rahmonberdiyeva, S. (2024). BINO-INSHOOTLAR QURILISHIGA OID TERMINLARNING XUSUSIYATLARI. Farg'ona davlat universiteti, (4), 145-145.
8. Abdulmuhammad's, R. S. Teaching Through Integration Method in Primary Education. International Journal on Integrated Education, 4(8), 31-32.
9. Raxmonberdiyeva, S., & Qurbonova, G. (2018). THEORETICAL APPROACHES TO THE PROBLEM OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. Теория и практика современной науки, (1 (31)), 48-49.
10. Qurbonova, G. Y., & Raxmonberdiyeva, S. A. (2018). THE MAIN INNOVATION APPROACHES IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Мировая наука, (10 (19)), 41-43.